

ANDIJON VILOYATI TRANSPORT INFRATUZILMASINI TAKOMILLASHTIRISH

Andijon davlat texnika instituti
“Avtomobilsozlik va transport” fakulteti
“Transport logistikasi” yo‘nalishi
K 46-22-guruh talabasi
Usmonov Azizbek XXX
E-mail: sr4usmanov9717@gmail.com
+998999937328

Annotatsiya: Mazkur maqolada Andijon viloyati transport infratuzilmasining hozirgi holati, uning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri hamda transport tizimini modernizatsiya qilish jarayonlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida viloyatda mavjud transport vositalari statistikasi, ularning yonilg‘i turlari bo‘yicha taqsimoti va ekologik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar, “aqlli transport” tizimlari (ITS), GPS monitoring, elektron to‘lov tizimlari hamda ekologik transport vositalarini joriy etishning transport samaradorligiga ta’siri yoritildi. Maqolada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, investitsiyalarni jalb qilish usullari va transport-logistika tizimini rivojlantirishning normativ-huquqiy asoslari ham tahlil etilgan. Tadqiqot natijasida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish hududiy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirishi, logistika xarajatlarini kamaytirishi va aholi harakatchanligini oshirishga xizmat qilishi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: Transport infratuzilmasi, aqlli transport tizimi, ITS, logistika, raqamlashtirish, davlat-xususiy sheriklik, investitsiya, ekologik transport, elektrobus, GPS monitoring, multimodal transport, transport modernizatsiyasi, Andijon viloyati, transport oqimi, elektron to‘lov tizimi.

Bugungi kunda transport infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hududlararo iqtisodiy

aloqalarni kuchaytirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va aholi harakatchanligini oshirishda zamonaviy transport tizimlarining ahamiyati ortib bormoqda. Shu sababli transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda ekologik transport vositalaridan foydalanishni kengaytirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

Andijon viloyati transport tizimi ham so‘nggi yillarda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Xususan, yangi elektrobuslar va mikroavtobuslarning xarid qilinishi, yo‘l infratuzilmasining yangilanilishi hamda “aqlli transport” tizimlarining joriy etilishi transport xizmatlari sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa nafaqat yo‘lovchi tashish samaradorligini oshiradi, balki ekologik holatni yaxshilash va yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, transport infratuzilmasiga investitsiyalarni keng jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish orqali zamonaviy logistika markazlari, multimodal transport tizimlari va raqamli boshqaruv platformalarini yaratish imkoniyati kengaymoqda. Natijada hududning tranzit salohiyati ortib, iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari yanada yaxshilanishiga zamin yaratilmoqda[1].

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda transport infratuzilmasini rivojlantirish nafaqat yo‘llarni qurish yoki ta‘mirlash bilan cheklanmaydi, balki ilg‘or texnologiyalarni joriy etishni ham talab etadi. Zamonaviy texnologiyalar transport tizimining samaradorligini oshirish, xavfsizlik darajasini yaxshilash va resurslardan oqilona foydalanishni ta‘minlaydi.

Ayniqsa, raqamlashtirish jarayonlari transport sohasida yangi bosqichni boshlab berdi. Natijada transport oqimlarini boshqarish, yuk tashishni rejalashtirish va monitoring qilish imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi.


Transport infratuzilmasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalarining samarali faoliyat yuritishini ta‘minlaydi. Zamonaviy sharoitda transport tizimini modernizatsiya qilish global raqobatbardoshlikni oshirish, logistika samaradorligini yaxshilash va hududlararo integratsiyani kuchaytirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi[3].

Ushbu gistogramma va diagramma Andijon viloyatidagi mavjud transport vositalari sonini va ularning rusumlarini ko‘rsatib shu bilan bir qatorda quyida esa uning yonilg‘i turlari va asosan qanday yonilg‘i turlaridan foydalanishi hamda ularning foiz ko‘rsatkichlari belgilab beriladi.

Jumladan Andijon shahrida umumiy transport vositalari soni 21 816 ta bo‘lib, ular orasida yengil taksilar eng ko‘p (15 546 ta) va avtobuslar eng kam (243 ta) hisoblanadi. Mikroavtobuslar va Damas marshrut avtomobillari ham aholi va yo‘lovchi tashish tizimida muhim rol o‘ynaydi.

Shuningdek, 2025 yilda viloyatga sotib olingan yangi elektrobuslar (40-100 taga yaqin) va mikroavtobuslar (12-40 tagacha) transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishga qaratilgan yangilanishlarni ko‘rsatadi.

Gistogramma va diagramma transport vositalarining turkumlar bo‘yicha taqsimlanishini vizual tarzda solishtirish imkonini beradi va qaysi turkum eng ko‘p yoki eng kam ekanligini aniq ko‘rsatadi, shuningdek, viloyat transport infratuzilmasining holati haqida umumiy tasavvur beradi.



2.1.6-rasm. Andijon viloyati transport vositalari statistikasi


Ushbu statistika shuni ko‘rsatadiki bunda mavjud transport vositalarini belgilangan miqdordagi foiz ko‘rsatkichi va ularning guruhlari belgilab o‘tilgan.

2.1.11-jadval

No	Yil	Yengil avtomobil	Yuk avtomobil	Avtobus	Mikroavtobus	Maxsus texnika

1	2021 y	305456	45110	175	195	26430
2	2022 y	330724	48210	190	210	28236
3	2023 y	360295	51970	205	225	31541
4	2024 y	395143	55875	215	235	32874
5	2025 y	430075	58830	223	243	34690

2.1.11-jadval. Andijon viloyati transport vositalari statistikasi raqamlarda belgilab berilgan.



2.1.7-rasm. Andijon viloyatida transport vositalarining yonilg‘idan foydalanish ko‘rsatkichi.

Bizga ma`lumki mazkur transport vositalarining yonilg‘idan ko‘proq foydalanishi atrof-muhit uchun ancha zararli ekanligi va infratuzilmani to‘g‘ri yo‘naltrish evaziga bu muammo va kamchilikni bartaraf etish tamoyilini ilgari surish vazifalari va jaraonlarini amalda tatbiq etilishi yuzasidan ushbu ma`lumotni mazkur bitiruv malakaviy ishi uchun qo‘llab ketdim.

2.1.12-jadval

No	Yil	Benzin	Gaz (metan)	Propan	Dizel	Elektro
1	2021 y	34783	210340	99407	32067	178
2	2022 y	37641	234572	112290	35115	210
3	2023 y	41980	263690	123586	38089	820
4	2024 y	45105	294334	130235	40244	2470

5	2025 y	49076	320440	140174	44660	5507
---	--------	-------	--------	--------	-------	------

2.1.12-jadval. Andijon viloyatida transport vositalarining yonilg'idan foydalanish ko'rsatkichi raqamlarda belgilab o'tilgan.

Andijon viloyatida transport infratuzilmasi sezilarli darajada rivojlangan bo'lib, ayniqsa avtomobil transporti yetakchi o'rinni egallaydi. Statistika ma'lumotlariga ko'ra, yengil avtomobillar soni boshqa transport vositalariga nisbatan ancha yuqori. Bu esa aholi harakatchanligi va hudud ichidagi iqtisodiy aloqalarning faolligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, avtobus va taksi xizmatlari ham aholiga transport xizmatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Hududiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Andijon viloyatida xizmatlar sohasi eng katta ulushni egallaydi. Qishloq xo'jaligi va sanoat ham muhim o'rin tutib, hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Transport infratuzilmasining rivojlanganligi esa ushbu tarmoqlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni yanada mustahkamlab, iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.

Transport infratuzilmasining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri masalasi xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o'rganilgan. Tadqiqotlarning aksariyatida transport tizimi iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri sifatida qaraladi. Masalan, D. Aschauer o'z ishida transport infratuzilmasiga kiritilgan davlat investitsiyalari ishlab chiqarish unumdorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biri ekanini ta'kidlaydi. Shuningdek, World Bank hisobotida transport infratuzilmasi rivojlanishi savdo hajmini oshirish, logistika xarajatlarini kamaytirish va hududiy integratsiyani kuchaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekani ko'rsatib o'tilgan[5].

O'zbekiston sharoitida ham transport infratuzilmasi rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda. "2022–2026yillarda Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" da avtomobil va temiryo'l tarmoqlarini kengaytirish, logistika markazlarini modernizatsiya qilish orqali hududlararo integratsiyani kuchaytirish asosiy vazifa

sifatida belgilangan. Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotchilar masalan, A. G‘aniev va M. Xasanov o‘z ilmiy ishlarida transport infratuzilmasining hududiy iqtisodiy tafovutlarni yumshatishdagi ahamiyatini alohida ta’kidlaydilar.

Mazkur Andijon viloyati transport infratuzilmani o‘rganishda va uni tahlil qilishda adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, transport infratuzilmasi rivojlanishi nafaqat iqtisodiy o‘sishni tezlashtiradi, balki hududlararo iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishning samarali vositasi sifatida ham qaraladi.

Hozirgi globallashuv sharoitida transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O‘zbekiston Respublikasida transport tizimini takomillashtirish, logistika samaradorligini oshirish hamda hududlararo integratsiyani kuchaytirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda []. Shu bois, mazkur sohada qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ular asosida zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda.

Avvalo, transport tizimining umumiy huquqiy asoslari O‘zbekiston Respublikasining “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni orqali tartibga solinadi. Mazkur qonunda transport turlarining yagona tizimi, infratuzilmani rivojlantirish tamoyillari hamda xavfsizlikni ta‘minlash masalalari belgilab berilgan. Ushbu hujjat transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishda asosiy normativ baza vazifasini bajaradi[7].

Shuningdek, avtomobil transporti sohasini rivojlantirishda “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonun muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu qonun yo‘lovchi va yuk tashish jarayonlarini tashkil etish, transport xizmatlari sifatini oshirish hamda yo‘l infratuzilmasini yaxshilashga xizmat qiladi. Natijada, avtomobil yo‘llarini rekonstruksiya qilish, zamonaviy transport vositalarini joriy etish va logistika xizmatlarini optimallashtirish imkoniyati kengayadi.

Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilishda davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish ham muhim hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-94-son Farmoni alohida o‘rin tutadi. Mazkur farmon asosida transport sohasida boshqaruv tizimi optimallashtirilib, xususiy sektor ishtiroki kengaytirildi hamda investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlari takomillashtirildi.

Bundan tashqari, Transport-logistika tizimini rivojlantirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-28-son Qarori muhim strategik hujjat hisoblanadi. Ushbu qarorga muvofiq, 2030-yilgacha bo'lgan davrda logistika markazlarini rivojlantirish, multimodal transport tizimini joriy etish hamda tranzit salohiyatini oshirish choralari belgilangan.

Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonida zamonaviy texnologiyalarni joriy etish alohida ahamiyatga ega. Jumladan, raqamli transport tizimlari (ITS — Intelligent Transport Systems), GPS monitoring, elektron to'lov tizimlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv platformalari keng qo'llanilmoqda. Bu esa transport oqimlarini samarali boshqarish, yo'l-transport hodisalarini kamaytirish hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ekologik jihatdan barqaror transport tizimini shakllantirish ham modernizatsiyaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Elektr transport vositalarini joriy etish, gaz va gibridd dvigatelli avtomobillar ulushini oshirish orqali atrof-muhitga salbiy ta'sir kamaytirilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayoni normativ-huquqiy asoslar bilan birga amalga oshirilib bunda, ilg'or texnologiyalar va investitsion siyosat uyg'unligi asosida amalga oshiriladi. Bu esa mamlakat iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish, aholi farovonligini oshirish va xalqaro transport yo'laklarida raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Transport infratuzilmasini jarayonlarini yanada takomillashtirish iqtisodiy ko'rsatkichlarni sifati va xalqaro aloqalarni yaxshilash bilan bir qatorda viloyat hamda shahar infratuzilmasini ham bosqichma-bosqich yaxshilab boradi va bu yaxshi harakatlar majmuini tashkil etibgina qolmay balki barcha sohalarda va yo'nalishda rivojlanish va rivojlantirish imkoniyatlarini keng yoritib beradi[9].

2.2 Investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari

Transport infratuzilmasi iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri hisoblanib, uning rivojlanishi hududiy integratsiya, logistika samaradorligi va aholi mobilligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Ushbu sohani modernizatsiya qilish katta miqdordagi moliyaviy

resurslarni talab qiladi. Shu bois investitsiyalarni jalb qilish transport tizimini rivojlantirishning asosiy omillaridan biri sifatida qaraladi.

O‘zbekiston Respublikasida transport infratuzilmasiga investitsiyalarni jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, avtomobil yo‘llari, temir yo‘l tarmoqlari, logistika markazlari va aeroportlarni modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Investitsiyalar quyidagi yo‘nalishlarda muhim ahamiyat kasb etadi:

- yangi transport obyektlarini qurish;
- mavjud infratuzilmani rekonstruksiya qilish;
- raqamli va “aqlli transport” texnologiyalarini joriy etish;
- ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirish.

Davlat-xususiy sheriklik — bu davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlik bo‘lib, unda infratuzilma obyektlarini yaratish, moliyalashtirish va boshqarish vazifalari o‘zaro taqsimlanadi.

DXSh mexanizmlari transport sohasida quyidagi afzalliklarni ta‘minlaydi:

- davlat budjeti yukini kamaytiradi;
- xususiy sektorning innovatsion tajribasini jalb etadi;
- loyihalarning samaradorligini oshiradi;
- xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilaydi. Bu esa o‘z navbatida yuqorida kltirib o‘tilganidek byudjetni qisqartirish (davlat), innovatsion tajribalarning o‘zaro o‘rin almashishi, bu samaradorlikga erishish va xizmatlar sifati juda yuqori bo‘lishi belgilab berilgan.

2.2.13-jadval

№	Moliyalashtirish mexanizmi	Izoh
1	Loyiha moliyalashtirish	Iqtisodiy birlik sifatida qarash
2	Xalqaro moliya institutlari ishtiroki	Transport loyihalarini moliyalashtirishda
3	Obligatsiyalar chiqarish	Infratuzilma obligatsiyalari chiqarish
4	Raqamli investitsiya platformalari	Zamonaviy texnologiyalar jalb qilish

2.2.13-jadval. Davlat xususiy sherikchilikni moliyalashtirish mexanizmi.

Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish hamda “aqlli transport” tizimlarini amaliyotga tatbiq etish bugungi kunda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda ishlab chiqilgan chora-tadbirlar kompleks yondashuv asosida amalga oshirilganda transport tizimining samaradorligi sezilarli darajada oshishi kutiladi.

Avvalo, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish natijasida yo‘l tarmoqlarining texnik holati yaxshilanadi, transport oqimlarini boshqarish samaradorligi ortadi hamda harakat xavfsizligi yuqori darajaga ko‘tariladi. Zamonaviy yo‘l qurilishi texnologiyalarini qo‘llash orqali yo‘llarning xizmat muddati uzayadi va yo‘l-transport hodisalari soni qisqaradi. Bu esa o‘z navbatida aholi harakatchanligini oshirib, hududlararo iqtisodiy integratsiyani mustahkamlaydi.

Raqamli texnologiyalar tizimlarining joriy etilishi transport boshqaruvida yangi bosqichni boshlab beradi. Jumladan, real vaqt rejimida transport oqimlarini monitoring qilish, svetoforlarni avtomatik boshqarish, tirbandliklarni oldindan prognozlash imkoniyatlari yaratiladi. Natijada yo‘llarda harakat zichligi optimal darajada taqsimlanadi, ortiqcha vaqt yo‘qotishlar kamayadi va yonilg‘i sarfi qisqaradi. Shu bilan birga, elektron to‘lov tizimlari va raqamli xizmatlar joriy etilishi transport xizmatlaridan foydalanishni yanada qulay va shaffof qiladi[10].

Investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarining takomillashtirilishi transport sohasida yirik infratuzilma loyihalarini amalga oshirish imkonini kengaytiradi. Xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi natijasida moliyaviy resurslar hajmi ortadi, zamonaviy texnologiyalar kirib keladi va ilg‘or boshqaruv tajribasi joriy etiladi. Bu esa transport infratuzilmasini rivojlantirish jarayonini jadallashtiradi hamda davlat budjetiga tushadigan yukni kamaytiradi.

Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining samarali qo‘llanilishi infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu mexanizm orqali davlat va xususiy sektor o‘rtasida risklar va mas’uliyatlar muvozanatli taqsimlanadi,

loyihalarning iqtisodiy samaradorligi oshadi. Natijada, transport xizmatlari sifati yaxshilanadi, aholiga ko‘rsatilayotgan xizmatlar ko‘lami kengayadi va yangi ish o‘rinlari yaratiladi. Bu bilamizki ishlovchilar uchun ish ta‘millanish imkonini beradi.

Transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalar va “aqlli transport” tizimlarini joriy etish, shuningdek investitsiyalarni jalb qilish va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini keng qo‘llash orqali transport tizimining samaradorligi, xavfsizligi va barqarorligi ta‘minlanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotining izchil rivojlanishi, aholi farovonligining oshishi va zamonaviy transport tizimini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi[12].

2.3.14-jadval

No	Taklif etilayotgan chora-tadbirlar	Natijalar
1	Yo‘l infratuzilmasini modernizatsiya qilish	Yangi aylanma yo‘llar (obxod yo‘llar) qurish. Bu eng samarali, kerakli va amalga oshirilishi lozim bo‘lgan vazifa bo‘lib harakat koeffitsientini mustahkamlanishi
2	Aqlli transport tizimini (ITS) joriy etish	Yo‘l harakatini real vaqt rejimida boshqarish hamda videokuzatuv va tirbandlik monitoring qilish imkoniyati
3	Jamoat transportini rivojlantirish	Yangi avtobuslar (elektrobus, gazli avtobuslar) xarid qilish
4	Multimodal transport tizimini rivojlantirish	Avtovokzal + temir yo‘l + logistika markazlarini integratsiya qilish
5	Raqamli texnologiyalarni joriy qilish	Mobil ilovalar orqali transport kuzatuv, elektron to‘lov tizimlari, GPS asosida avtobuslarni nazorat qilish
6	Ekologik transportni rivojlantirish	Elektrobuslar ulushini oshirish, velosiped yo‘laklari qurish, yashil transport siyosatini joriy qilish

7	Xususiy sektorni jalb qilish	Davlat-xususiy sheriklik asosida transport loyihalari, avtobus parklarini modernizatsiya qilishga investorlarni jalb qilish
---	------------------------------	---

2.3.14-jadval. Transport infratuzilmasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Transport to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 1998.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
4. O‘zbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-94-son Farmoni “Transport sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2023.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-28-son Qarori “Transport-logistika tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. – Toshkent, 2022.
7. “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”. – Toshkent, 2022.
8. Aschauer D.A. Is Public Expenditure Productive? // Journal of Monetary Economics. – 1989. – Vol. 23. – P. 177–200.
9. World Bank. Transport Infrastructure and Economic Development Report. – Washington DC, 2021.
10. OECD. Transport Infrastructure Investment and Regional Development. – Paris, 2020.
11. G‘aniev A. Hududiy transport infratuzilmasini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy jurnali. – Toshkent, 2021.

12. Xasanov M. Transport-logistika tizimini modernizatsiya qilishning ustuvor yoʻnalishlari // Transport va logistika ilmiy jurnali. – Toshkent, 2022.
13. Osiyo taraqqiyot banki (ADB). Central Asia Regional Economic Cooperation Transport Strategy 2030. – Manila, 2020.
14. Jahon banki. Uzbekistan Transport Sector Review. – Washington DC, 2022.
15. Andijon viloyati statistika boshqarmasi maʼlumotlari, 2021–2025-yillar.